



O'ZBAKISTON SHAROITIDA INGLIZ TILI MULOQOTIDA PRAGMATIK
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Sattorova Feruza Elmurodovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti Katta o'qituvchi, PhD, doktorant
(99)941-14-08*

ANNOTATSIYA

Pragmatik qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar ko'pincha ikkinchi chet tilini o'zlashtirish borasida olib borilganlari inobatga olsak, ushbu maqolada ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan kontekstlarda uchraydigan mummolarni tadqiq qilish maqsad qilingan. Xususan, O'zbekiston sharoitida haqiqiy inglizlar bilan muloqotga kirishishning imkoni yo'qligi muloqotda qanday pragmatik muammolarni keltirib chiqishi, ko'plab tadqiqotchilarni chet tili ta'limida hali hal qilinmagan muammolarga diqqat qaratishga chaqiradi.

Kalit so'zlar: pragmatik qobiliyat, kommunikativ maqsad, ijtimoiylashish, nutq aktlari, muloqot me'yorlari

Tillarni o'qitish, chet tilini o'rganish ahamiyatini insoniyat ancha oldin anglab yetdi va chet tili ta'limi metodikasi hozirga qadar boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari sistemasida mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlanishda davom etmoqda. Keyingi yarim asrlik vaqt mobaynida til o'rganish va o'rgatish borasidagi tasavvurlarda katta o'zgarishlar sodir bo'lganiga guvohimiz [2;159]. Turli yondashuvlar orasida "kommunikativlik asosida til o'qitish" til ta'limining eng keng tarqalgan usuliga aylandi va undan ko'zlangan asosiy maqsad til o'rganuvchilarning muloqotga kirisha olish qobiliyatini oshirishdir. Pragmatik qobiliyat – ya'ni ma'lum vaziyatda nutq mazmunini to'g'ri anglash va uni makon, zamon va ijtimoiy kontekstda to'g'ri tushunish va qo'llash qobiliyatidir. Bunda muloqot davomida so'zlovchi nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri nutqiy birliklarni tanlaydi, balki o'zining botiniy kommunikativ maqsadini ham ifoda etadi. Shunday ekan, til amaliyotida biz o'qitayotgan talabalar bunday qobiliyatni turli kontekstlarda to'g'ri qo'llay olmoqdami, degan savolga javob izlash zarur.

Kommunikativ qobiliyatni tashkil etuvchi pragmatik kompetensiyani o'quvchilarda shakllantirish sohasida duch kelinayotgan kamchiliklar va bo'shliqlar muhokama qilib kelinayotgan bo'lsa-da, hali bu borada tizimiy natijalarga erishilgani yo'q.

Ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan muhitda pragmatikani o'qitish va o'zlashtirishda duch kelinadigan cheklovlarga bir necha sabablar bor: birinchidan, ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan kontekstda grammatik aniqlikka urg'u berish ustundir, natijada talabalarning lingvistik va pragmatik qobiliyatlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Ikkinchidan, ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan kontekstda ushbu til muloqot va ijtimoiylashish vositasi emas, balki obyekt sifatida qaraladi[1;248]. Uchinchidan, sinfdagi muloqot faqatgina





ma'lum bir guruhga tegishli nutq aktlaridagina foydalanishni taqozo etsa, real hayotda turli-tuman nutq aktlariga ehtiyoj tug'iladi, shuning uchun bunday sinflarda o'quvchilarni o'rganilayotgan til hamjamiyatida qabul qilingan muloqot me'yorlarini o'z nutqida qo'llashga yaxshi tayyorlash qiyinlashadi[4;134].

Ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan muhitda pragmatikani o'qitish va o'zlashtirishda duch kelinadigan cheklovlarga bir necha sabablar bor: birinchidan, ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan kontekstda grammatik aniqlikka urg'u berish ustundir, natijada talabalarning lingvistik va pragmatik qobiliyatlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Ikkinchidan, ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan kontekstda ushbu til muloqot va ijtimoiylashish vositasi emas, balki obyekt sifatida qaraladi[3;245]. Uchinchidan, sinfdagi muloqot faqatgina ma'lum bir guruhga tegishli nutq aktlaridagina foydalanishni taqozo etsa, real hayotda turli-tuman nutq aktlariga ehtiyoj tug'iladi, shuning uchun bunday sinflarda o'quvchilarni o'rganilayotgan til hamjamiyatida qabul qilingan muloqot me'yorlarini o'z nutqida qo'llashga yaxshi tayyorlash qiyinlashadi.

Xullas, bunday pragmatika bilan bog'liq nutqda uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun chet tili o'qituvchilari, asosan, ingliz tili o'qituvchilari o'zlarida nafaqat pragmatika bo'yicha nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmlarni ham shakllantirishlari lozim. Chunonchi, o'zbek o'quvchilari ingliz tilida haqiqiy so'zlovchilar bilan real vaziyatda muloqot qilishlari chegaralanganligini inobatga olsak, o'qituvchilar ular uchu tajriba manbaidir. Ammo yuqoridagi muammolarning yechimini topish uchun faqat bir usul yoki yo'nalish yo'q, bunday muammoni bartaraf etish uchun o'qituvchidan izlanuvchanlik va pragmatik bilim talab qilinadi. Muloqotdagi pragmatik muammolarni bartaraf etishning amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan usullari esa qo'shimcha tadqiqotlarga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bardovi-Harlig K., Dörnyei Z. Do language learners recognise pragmatic violations? // Pragmatic vs. Grammatical awareness in instructed L2 learning. TESOL Quarterly, Volume- 32(2), 1998. – P.237-253. <https://doi.org/10.2307/3587583>
2. Usó-Juan E., Martínez-Flor A. Current trends in the development and teaching of the four language skills. – Berlin.: Mouton de Gruyter, 2006. –498 p.
3. Cook V. Second language learning and language teaching. – London.: Arnold, 2001. – 317 p.
4. Webb E. J., Campbell D. T., Schwartz R. D., Sechrest L. Unobtrusive measures: Nonreactive research in the social sciences. – Chicago.: Rand McNally, 1966. – 237 p.

